

**DAVLATLAR O'RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR VA BU SOHADAGI OLIB  
BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

**Akbaraliyev Jamshidbek Tursunali o'g'li**

Surxandaryo viloyati Muzrabot tumani

Davlat Xavfsizlik Xizmati xodimi.

**e-pochta:** abekhzodbek@gmail.com Tel.: + 998 (99) 809-12-35

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13336627>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, iqtisoddagi mavjud muammolar, kelajakdagi iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy hamkorlik xususida fikr yuritiladi.

Shu bilan birga, maqolada ushbu sohadagi mavjud muammolar, statistik ma'lumotlar va pragnozlar, shuningdek davlatlar amaldagi qonunchiliklari hamda xalqaro amaldagi shartnoma va kelishuvlarda mavjud to'siqlar hamda imkoniyatlar batafsil tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy zonalar, hamkorlik, korxona, portfel, import, eksport, shartnoma, kelishuv, tashqi savdo, investetsiya, investor.

**ECONOMIC RELATIONS BETWEEN COUNTRIES AND REFORMS IN THIS AREA**

**Abstract.** This article discusses economic relations between countries, current problems in the economy, future economic relations, and economic cooperation.

At the same time, the article provides a detailed analysis of existing problems, statistics and forecasts in this field, as well as obstacles and opportunities in current laws of countries and international agreements and agreements.

**Key words:** Economic zones, cooperation, enterprise, portfolio, import, export, contract, agreement, foreign trade, investment, investor.

**ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ СТРАНАМИ И РЕФОРМЫ В ЭТОЙ  
ОБЛАСТИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются экономические отношения между странами, текущие проблемы в экономике, будущие экономические отношения и экономическое сотрудничество.

При этом в статье дается подробный анализ существующих проблем, статистика и прогнозы в этой сфере, а также препятствия и возможности в действующих законах стран и международных соглашениях и соглашениях.

**Ключевые слова:** Экономические зоны, сотрудничество, предприятие, портфель, импорт, экспорт, контракт, соглашение, внешняя торговля, инвестиции, инвестор.

## Kirish

Hozirgi kunda O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida ko‘p yillardan buyon bir qancha davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yo’lga qo’yib kelmoqda. Bu borada dunyoning bir qancha davlatlari bilan yangi iqtisodiy aloqalar o‘rnatilmoqda, shuningdek iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lgan davlatlar bilan bu sohadagi imkoniyatlar kengaytirilmoqda.

Shu bilan birgalikda qonunchilik va normativ hujjatlarga ham o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilmoqda. Davlatlar òrtasidagi iqtisodiy aloqalar bu - davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tushunish, tushuntirish va rivojlantirish bilan tushunishimiz mumkin.

Bu soha iqtisodiy, siyosiy va diplomatiya sohalari orasida o‘zgaruvchan munosabatlarga asoslangan hisoblanadi. Juhon iqtisodiyotiga har bir mamlakat uchun katta e’tibor mavjud.

Mamlakatlar o‘zining iqtisodiy mustaqilligiga ega bo’lsa-da, xavfsizligi va rivojlanishi uchun boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarga katta e’tibor qaratadi. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar muhim ahamiyatga ega.

Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va mavjud muammolarni bartaraf etishda eng muhim jarayon, o‘zaro ishonch va samaradorlikni qo’llab-quvvatlashdir. Albatta O‘zbekistonda iqtisodiy muammolar talaygina, ushbu muammolarga yechim topish uchun ham O‘zbekiston boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishi kerak va hamkorlik natijasida aholining yashash farovonligi o‘sadi. O‘zbekiston hozirgi paytda Juhon savdo tashkilotiga qo‘silish arafasida turibdi. Bu albatta O‘zbekiston uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng ko’plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatdi. Bularning biri Xitoy Xalq Respublikasi davlatidir. Hozirgi vaqtida Xitoy Xalq Respublikasi bilan keng ko’lamli iqtisodiy va diplomatik aoqalar o‘rnatilmoqda. Shu bilan birgalikda Xitoy O‘zbekistonning eng asosiy sheriklaridan biriga aylanmoqa. Shu o‘rinda ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy, huquqiy, madaniy aloqalarni, shuningdek davlatlar o‘rtasidagi mustaqillikdan keying tuzilgan shartnoma va kelishuvlarni o‘rganish muhim sanaladi.

Hozirgi vaqtgacha O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida 283ta<sup>1</sup> hujjat almashinushi bo‘lgan. Bulardan 113 ta davlatlararo va hukumatlararo xalqaro shartnomalar, 82 ta idoralararo va boshqa turdagiligi 88 ta hujjatlar imzolangan. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida Xitoy Xalq Respublikasining bizning davlatga qiziqishi katta bo‘lmagan. Ammo Xitoy rahbari Xu Tsintaoning 2004<sup>2</sup>-yil va 2006<sup>3</sup>-yillarda mamlakatimizga tashrif buyurishi vaziyatni

<sup>1</sup><https://daryo.uz/2023/05/17/qariyb-9-mlrd-dollarga-yetgan-savdo-aylanmasi-turizm-sohasidagi-hamkorlik-natijalari-markaziy-osiyo-xitoy-sammitining-ahamiyati-ozbekiston-va-xitoy-ortasidagi-hamkorlik-qanday-holatda>

<sup>2</sup><https://islomkarimov.uz/uz/page/tashqi-siyosat-2004-yil>

<sup>3</sup><https://islomkarimov.uz/uz/page/tashqi-siyosat-2006-yil>

o'zgartirdi. Keyinchalik Si Szinpin Xitoy Xalq Respublikasining rahbariga aylanganidan so'ng mamlakatning O'zbekitonga nisbatan qiziqishi yildan yilga ortib bordi. Bu davr ichida Si Szinpin 2013<sup>4</sup>-yil, 2016<sup>5</sup>-yil va 2022<sup>6</sup>-yillarda O'zbekistonga 3 marotaba tashrif buyurdi. Bu tashriflar davomida esa bir qator shartnomalar va kelishuvlar imzolandi. Misol uchun, ikki davlat o'rtasida 2011-yildan boshlab o'zaro savdoda eng qulay davlat rejimi o'rnatildi. Buning natijasida O'zbekiston tomonidan Xitoyning 2017-2022 yillarda 10,9 mlrd dollar, shu jumladan, 2022-yilda 2,2 mlrd dollar sarmoyasi o'zlashtirildi. Xitoy Xalq Respublikasining Eksimbanki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki va Xitoy sanoat va tijorat banki tomonidan O'zbekistonga berilgan kreditlarning umumiy portfeli 6,9 milliard dollarni tashkil qildi. Xitoy Xalq Respublikasining 2008-2022 yillarda 51 ta loyihani amalga oshirish uchun 246,3 mln dollarlik, 2022 yilda esa 10,1 mln dollar miqdoridagi sarmoyalari jalb etildi. Shuningdek, O'zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 1763 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shundan 275 tasi 2022-yilda tashkil etilgan.

O'zbekistonning Xitoy bilan tovar ayriboshlash hajmi 2023-yilda 13,7 milliard dollarni tashkil etdi. Bunda eksport hajmi 2,5 milliard dollar, import 11,3 milliard dollarni tashkil qilgan. Xitoy Xalq Respublikasining import qilish ulushi qariyb 75,2 foizga o'sganini ham qayd etib o'tishimiz kerak. Statistikaga ko'ra 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Xitoyning ulushi 21,9 foizni tashkil etgan. Jumladan: umumiy eksportning 10,1 foizi, importning 29,5 foizi Xitoy Xalq Respublikasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek Statistika agentligi yillik hisobotiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi 2022-yildagi tovar aylanmasi hajmi 9 milliard dollarni tashkil etganini ko'rsatib o'tgan.

O'zbekistonning bu davrda eksport ulushi 2,6 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, import hajmi esa 6,4 milliard dollar bo'lgan. Davlatlar o'rtasidagi 2023<sup>7</sup>-yilning 17-oktyabr kuni tashkil etilgan "Bir kamar, bir yo'l" muzokaralarning 10-yilligi munosabati bilan O'zbekiston va Xitoy rahbarlari keyingi 5 yilda o'zaro tovar ayriboshlash hajmini 20 milliard dollarga yetkazish oldiga maqsad qilib qo'yanini ta'kidlashgan. Xitoy Xalq Respublikasining Sian shahrida 2023<sup>8</sup>-yilning may oyida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Xitoy" birinchi sammitida ikki davlat o'rtasida turli xil sohalarga doir 41 dan ortiq shartnomalar imzolangan. Bu sammit mobaynida O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi aloqalari yangi boshqichga o'tganini aytib o'tishimiz mumkin.

<sup>4</sup> <https://islomkarimov.uz/uz/page/tashqi-siyosat-2013-yil>

<sup>5</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/515>

<sup>6</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/president/>

<sup>7</sup> <https://uzreport.news/world/xitoya-bir-kamar-bir-yo-l-forumi-bolib-otadi-sanalar-dastur-ishtirokchi-davlatlar-haqida>

<sup>8</sup> [https://kun.uz/news/2023/05/19/shavkat-mirziyoyev-markaziy-osiyo-xitoy-sammitida-hamkorlikni-kengaytirishga-qaratilgan-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi](https://kun.uz/news/2023/05/19/shavkat-mirziyoyev-markaziy-osiyo-xitoy-sammitida-hamkorlikni-kengaytirishga-qaratilgan-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F19%2Fshavkat-mirziyoyev-markaziy-osiyo-xitoy-sammitida-hamkorlikni-kengaytirishga-qaratilgan-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi)

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin o'rtasida Qo'shma bayonot imzolandi. Bu bayonot 2023–2027-yillarga mo'ljallanib ishlangan O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturi hisoblanadi.

Shu yilning 23-25<sup>9</sup> yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan ushbu mamlakatga davlat tashrifini amalga oshirdi. Tashrif davomida ikki davlat o'rtasida muhim strategik sheriklikni har tomonlama rivojlantirish uchun muzokaralar bo'lib o'tdi va tegishli hujjatlar imzolandi. Bu harakatlar Xitoy Xalq Respublikasi ishbilarmon kishilarini O'zbekistonga investetsiya ajratishi va ularning kelajakda doimiy investor bo'lib qolishiga zamin yaratdi.

Keyingi yillarda bu iqtisodiy ko'rsatgichlar har tomonlama oshishi kutilmoqda. Ayniqsa qishloq xo'jaligida va sanoat sohasida mahsulotlarni yetkazib berish va ayrim turdag'i mahsulotlarga imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. So'nggi yillarda Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalar hajmi 5 barobar, tashkil qilingan qo'shma korxonalar soni esa 3 barobarga oshdi. Shuningdek ikki mamlakat o'rtasida ta'lim va turizm sohasidagi hamkorlik ham faollahib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida o'zaro madaniyat kunlarini o'tkazish amaliyoti joriy qilindi.

Shuningdek, ikki davlatning Parlamentlararo hamkorligi ham faollahdi.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasining muhim va strategik sherigi hisoblangan Rossiya Federatsiyasi bilan ham iqtisodiy hamkorlik yildan-yilga o'sib bormoqda. Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning 2018<sup>10</sup>-yil oktyabr oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida Rossiya O'zbekistonning muhim savdo sheringidir deb ta'kidlab o'tdi. Hozirda vaqtida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida erkin savdo tartibi amal qilmoqda. Buning natijasida davlatlar o'rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi 30 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklik masalalarining yangi bosqichga o'tganligi va qiymati 25<sup>11</sup> milliard dollar bo'lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolandi. Shuningdek, o'sha vaqtida imzolangan ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi ham iqtisodiy hamkorlik o'sishiga sababchi bo'ldi. Hozirda mamlakatimizda eng yirik loyiha hisoblangan Rossiya Federatsiyasining "Lukoil"<sup>12</sup> kompaniyasi bilan ham yirik loyiha rejasи tuzib chiqildi. Loyihaning

<sup>9</sup> <https://www.trt.net.tr/uzbek/dasturlar/2024/02/04/o-zbekiston-xitoy-munosabatlardagi-oxirgi-vaziyat-2096261>

<sup>10</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/1770>

<sup>11</sup> <https://daryo.uz/2018/10/19/o%CA%BBzbekiston-rossiya-tovar-ayriboshlash-hajmi-10-milliard-dollarga-yetkaziladi/>

<sup>12</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/1770>

umumiyligi qiymati 3,4 milliard dollardan ko'proqni tashkil qiladi. "Lukoyl" yiliga 8,1 milliard kubometr gaz qazib chiqarish va qayta ishlash quvvatiga ega hisoblanadi. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasining yana bir energetika giganti hisoblangan "Gazprom"<sup>13</sup> kompaniyasi ham O'zbekiston Respublikasida faol ish faoliyatini olib bormoqda. "Gazprom" o'zbek gazini sotib olish bilan birgalikda geologiya-qidiruv ishlarini tashkil qilmoqda.

Shuningdek "Gazprom" kelishuvga binoan, "Shoxpaxta"<sup>14</sup> gaz konini o'zlashtirish bo'yicha loyihani amalga oshirishni davom ettirmoqda. Rossiya Federatsiyasining "Evrotsement"<sup>15</sup> kompaniyasi tarkibidagi "Ohangaronsement"<sup>16</sup> OAJ O'zbekistonda sement ishlab chiqarish quvvati bo'yicha ikkinchi hisoblanadi. Hozirgi kunda kompaniya tomonidan Toshkent viloyatida "Quruq usul" bilan sement ishlab chiqariladigan yangi zavodni qurish bo'yicha loyiha amalga oshirmoqda. Shuningdek Chirchiq qishloq xo'jaligi texnika zavodi AJ bazasida "Rostselmash"<sup>17</sup> zavodi ishtirokida kombaynlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxona barpo etilib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2018<sup>18</sup>-yilning 7-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi davlati hukumat rahbarlari Abdulla Aripov hamda Dmitriy Medvedevlar uchrashuvi chog'ida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, investitsion va madaniy-gumanitar hamkorlik masalalarini muhokama qilindi. Muhokama vaqtida atom energetikasi, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lif sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirishga doir masalalr ko'rib chiqildi. Shu bilan birgalikda O'zbekiston hududida atom elektr stansiyasini loyihalashtirish va qurish, shuningdek, ishga tushirish va foydalanishda hamkorlikni nazarda tutuvchi bitim imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlarining ishtiroki asosida 2018<sup>19</sup>-yil oktyabr oyida Toshkentda "O'zbekiston - Rossiya" hududlararo hamkorlik forumi o'tkazildi. Bu esa o'z navbatida ikki davlat o'rta sidagi iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek Toshkent shahrida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rta sidagi hududlararo hamkorlik Forumi davlatlar o'rta sidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning mustahkamlanishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi.

Ushbu forumda Rossianing 17 ta hududidan 1000 ga yaqin ishbilarmon kishilari, yirik kompaniyalarning rahbarlari ishtirok etdi. Shuningdek, 2018-yilning 3-oktyabr kuni Oliy Majlisning ikkala palatasi rahbariyati bilan uchrashuv vaqtida Valentina Matvienko

<sup>13</sup> <https://international.gazprom.ru/tekhnologii/uzbekistan/>

<sup>14</sup> <https://ulidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/2013>

<sup>15</sup> <https://yuz.uz/uz/news/evrotsement-kompaniyasi-oxangarontsementdagi-aktsiyalarini-sotadi>

<sup>16</sup> <https://yuz.uz/uz/news/evrotsement-kompaniyasi-oxangarontsementdagi-aktsiyalarini-sotadi>

<sup>17</sup> <https://uz.rotselmash.com/>

<sup>18</sup> <https://daryo.uz/2018/09/07/abdulla-aripov-bugun-moskvada-dmitriy-medvedev-bilan-uchrashadi>

<sup>19</sup> [https://m.kun.uz/news/2018/09/27/vladimir-putinining-uzbekistonga-tasrifi-sanasi-malum-buldi](https://m.kun.uz/news/2018/09/27/vladimir-putinining-uzbekistonga-tasrifi-sanasi-malum-buldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F09%2F27%2Fvladimir-putinining-uzbekistonga-tasrifi-sanasi-malum-buldi)

parlamentlararo hamkorlik munosabatlarining o'zaro rivoji xususida ommaviy axborot vositalari vakillariga bergen intervyusida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarga ega ekanligini va Rossiya Federatsiyasi uchun O'zbekiston Respublikasi ishonchli ittifoqchi va strategik hamkor davlat ekanligini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishganidan so'ng O'zbekiston-Hindiston munosabatlari barcha sohada jadal rivojlandi. Hindiston va O'zbekiston o'rtaisdagi savdo aloqlari jadal rivojlanmoqda. Masalan, 2021<sup>20</sup>-yilning yanvar-dekabr oylarida tovar ayriboshlashning hajmi 10,3%ga o'sib, deyarli 490 million dollarni tashkil etdi. O'zbekiston eksporti 36,8%ga oshib, 29 million dollarga tashkil etgan bo'sa, Hindiston importi esa 9,0%ga ortib, 460 million dollarni tashkil etdi. O'zbekiston asosan Hindistonga kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan buyumlarni, rangli va qora metallar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarni eksport qiladi. Shuningdek, Hindistonning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalari hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda turizm va farmatsevtika sanoati sohalarini rivojlantirish uchun umumiyligi qiymati deyarli 700 million dollarlik bir qator investitsiya loyihibarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Kryingi yillarda, O'zbekiston va Hindiston davlatlari o'rtaisdagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish Hindiston eksportini 294 million dollargacha oshirish imkonini berishi mumkin va bu esa farmatsevtika, qahva, choy, ziravorlar, elektr mashinalari, uskunalarini va ehtiyyot qismlari; mexanik mashinalar, uskunalarini va ehtiyyot qismlari, temir va po'lat, temir va po'latdan tayyorlangan buyumlar kabi tovarlarning ortishiga xizmat qiladi.

Hindistonda ushbu yo'naliishlar bo'yicha to'plangan ulkan tajribalar mamlakatimizda ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. O'zbekiston va Hindiston o'rtaida tibbiyot va farmatsevtika sanoatida o'zaro hamkorlik o'rnatilgan. Shuningdek ikki davlat ishtirokida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilinmoqda. Masalan, Andijon viloyatida O'zbekiston va Hindiston erkin farmatsevtika zonasini tashkil qilingan. O'tgan yillarda Hindistonning "Kusum Healthcare"<sup>21</sup> kompaniyasi bosh direktori Sanjiv Gupta Toshkent viloyatining Zangiota tumanida yaratilayotgan "Tashkent Pharma Park"<sup>22</sup> farmatsevtika klasteri hududida aholida talab yuqori bo'lgan dorilarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish niyatini bildirdi. Hindistonda arzon narxdagi dori vositalarni ishlab chiqaradigan qurilmalarni O'zbekistonga olib kelish to'g'risida kelushuvlar amalga oshirildi. Farmatsevtika sanoatida O'zbekiston uchun Hindistonning bu sohadagi tajribasi foydali bo'lishi ta'kidlandi.

<sup>20</sup> <https://review.uz/uz/post/infografika-ozbekistonning-2021-yil-yanvar-fevral-oyi-uchun-tashqi-savdosiga>

<sup>21</sup> <https://www.uzdaily.uz/ru/post/40878>

<sup>22</sup> <https://uzpharmagency.uz/oz/news/farmatsevtika-tarmogini-rivojlantirish-agentligi-direktori-tashkent-pharma-park-klasteri-hududida>

## REFERENCES

1. O'zbekiston milliy axborot agentligi O'zA.uz.  
<https://uz.yellowpages.uz/korxona/ozbekiston-milliy-axborot-agentligi-oza>
2. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi".  
<https://strategy.uz/index.php?news=1465&lang=uz>
3. <https://xs.uz/uzkr>
4. Валентина Матвиенко: Сўнгги уч йилда мамлакатларимиз ўртасида барча соҳадаги ўзаро муносабатлар жадаллик касб этмоқда - Халқ сўзи (xs.uz)
5. Шавкат Мирзиёев Владимир Путин билан учрашди - Халқ сўзи (xs.uz)
6. O'zbekiston va Xitoy : Yangi asrda yangicha hamkorlik. // Xalq so'zi. 2004, 16 iyun.
7. Xudoyqulov A., Nurullayev N. O'zbekiston- Xitoy hamxorlikning yangi bosqichi // Ilm sarchashmalari -Urganch
8. 2023-yilda O'zbekistonning Xitoy bilan savdo aylanmasi hajmi keskin oshdi — Daryo Yangiliklari
9. 2023-yilda O'zbekistonning Xitoy bilan savdo aylanmasi hajmi keskin oshdi | UzReport.news
10. O'zbekiston va Xitoy vakillari o'rtasida 41 ta hamkorlik hujjati imzolandi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz